

HARBIY SAN'ATNING TARIXIY, KONSTITUTSIYAVIY(QOMUSIY) SHAKLLANISHI VA KLASSIK NAZARIYALARI.

Xodjamkulov Asliddin Najmitdinovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi
Tel: +99893 640-87-76

Annotatsiya: Insoniyat tarixi davomida urush va tinchlik masalalari doimo jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Harbiy san'at — bu faqatgina urush olib borish uslublari majmuasi emas, balki inson tafakkuri, strategiya, siyosat va fanning uzviy bog'liqlikdagi ifodasidir. Harbiy san'at jamiyat taraqqiyoti, davlatchilikning mustahkamlanishi va xavfsizlik tizimining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Harbiy san'atning tarixiy shakllanish jarayoni turli davrlarda turlicha bo'lgan. Ilk insoniy jamoalardan bugungi zamonaviy davlatlarga bo'lgan yo'lda urush usullari, qurollar, tashkilotchilik va strategiya muntazam takomillashib borgan. Bu jarayonda faqat amaliyot emas, nazariy fikr ham muhim ahamiyat kasb etgan. Sun-Szy, Klauzevis, Jomini, Amir temur, Napoleon kabi shaxslar harbiy san'atni ilmiy darajaga ko'targanlar[5].

Mazkur maqolada harbiy san'atning tarixiy shakllanishi, eng muhim nazariy yo'nalishlar va ularning zamonaviy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Harbiy san'at, strategiya, operativ, taktika, urush va mojarolar.

ИСТОРИЧЕСКОЕ СТАНОВЛЕНИЕ И КЛАССИЧЕСКИЕ ТЕОРИИ БОЕВОГО ИСКУССТВА.

Ходжамкулов Аслиддин Наджмитдинович, магистрант Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан.

Аннотация: На протяжении всей истории человечества вопросы войны и мира всегда были неотъемлемой частью общественной жизни. Военное

искусство – это не просто совокупность способов ведения войны, но и неотъемлемое выражение человеческой мысли, стратегии, политики и науки.

Военное искусство играет важную роль в развитии общества, укреплении государственности и формировании системы безопасности.

Историческое становление военного искусства было различным в разные периоды. На пути от древнейших человеческих сообществ до современных государств постоянно совершенствовались методы ведения войны, вооружение, организация и стратегия. В этом процессе важную роль играла не только практика, но и теоретическая мысль. Такие деятели, как Сунь Цзы, Клаузевиц, Жомини, Амир Темур, Наполеон, подняли военное искусство на научный уровень[5].

В данной статье анализируется историческое становление военного искусства, важнейшие теоретические направления и их современное значение.

Ключевые слова: Военное искусство, стратегия, оперативность, тактика, война и конфликт.

HISTORICAL FORMATION AND CLASSICAL THEORIES OF MARTIAL ARTS.

Khodjamkulov Asliddin Nadzhmitdinovich, Master's student, University of Public Security of the Republic of Uzbekistan.

Abstract: Throughout human history, issues of war and peace have always been an integral part of public life. Military art is not simply a set of methods of waging war, but also an integral expression of human thought, strategy, politics, and science.

Military art plays a vital role in the development of society, the strengthening of statehood, and the formation of a security system.

The historical development of military art has varied over time. From the earliest human societies to modern states, methods of warfare, weaponry, organization, and strategy have continually improved. In this process, not only practice but also theoretical thought played a significant role. Figures such as Sun Tzu, Clausewitz, Jomini, Amir Temur, and Napoleon elevated military art to a scientific level [5].

This article analyzes the historical development of military art, its most important theoretical approaches, and their contemporary significance.

Keywords: Military art, strategy, operational efficiency, tactics, war and conflict.

KIRISH.

Harbiy sa'nat-quruqlik, dengiz, havoda harbiy harakatlar olib borishga tayyorgarlik ko'rish va uni olib borish nazariyasi va amaliyoti: Harbiy sa'nat-harbiy fanning bir qismi. Zamonaviy Harbiy sa'natning tarkibiy qismi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan harbiy strategiya, operativlik san'ati va taktikadan iborat. Harbiy sa'nat ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy tuzum xarakteri bilan belgilanib, mamlakatning rivojlanish tarixi xususiyatlari, milliy xususiyatlar va a'nanalar, geografik sharoit boshqa omillarga bog'liq suratda rivojlanadi[8].

Xarbiy san'at tarixi va uning tarakkiyoti.

Turkiy qavmlar jahondagi eng qadimgi xalqlardan sanalib, ular yashagan hudud faqat hozirgi O'rta Osiyoni qamrab olmasdan balki sharqda Tinch okeani, g'arbda Dnepr va Don daryolariga qadar bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan. Turon zaminida yaratilgan kashfiyotlar, jang qilishning yangi usullari barcha turkiy xalqlar tomonidan tezda o'zlashtirib olinib, yangi bosqichga ko'tarilgan. Mil avval 3-ming yillik oxiri-2 ming yillikda Sharqdagi ko'chmanchi xalqlarda otliq qo'shin paydo bo'lgan va undan aloqa, razvedka va qo'riqlash ishlarida foydalanilgan. Turkiy xalqlar Harbiy sa'nat tarixida birinchi bo'lib suvoriylar safini joriy etganlar (har bir otliq askar orasidagi masofa 20 m. jangovar qatorlar soni 10 ta) [1,2,3,5,9].

Strategiya urush olib borish sa'nati sifatida, asosan Sharqda vujudga kelgan. Qadimgi Sharq qo'shinlarining urush olib borish san'ati, asosan, son jihatidan ortiq qo'shin bilan dushmanni tor-mor etishga qaratilgan. Ko'chmanchi xalqlar (skiflar, saklar, massagetlar va b.) kuchli dushman hujum qilganda ko'pincha mamlakat ichkarisi tomon atayin chekinganlar, kichik otliq qismlar bilan dushmanga beto'xtov xamla qilib uni xoldan toydirganlar, so'ngra qarshi hujumga o'tganlar. Strategik mudofaa (chekinish) va strategik hujum (qarshi hujumga o'tish)ning shunday turini

birinchi bo'lib Qora dengiz bo'yi skiflari mil.av 512 y.da Doro 1 bosqini davrida qo'llaganlar. Saklar ham Doro1 ga qarshi raqibni cho'l-biyobonlarga hiyla bilan boshlab borish taktikasini qo'llashgan. Mashhur arab adibi Johiz (775-868) ning "Manoqib al-atrok" ("Turkiy xalqlarning xislatlari") asarida "Sosoniy forslar barcha xalqlardan davlatni boshqarish" sa'natida, xitoyliklar-hunarmandlikda, yunonlar-ilm-fanda va turkiylar harbiy ishda ustundir" deb yozadi[8,9].

Qadimda sak jangchilari o'zlari tayyorlagan kamon va xanjar (akinak) bilan, shuningdek, oyboltalar (sagarislar) bilan qurollanganlar. Marafon jangida (mil.av 490 y) qo'shinning markazida forslar bilan yonma-yon turib urushgan saklar otliq bo'lganligi sababli afinaliklarning qatorini yorib o'tishni amalga oshirganlar. Biroq fors qo'shinining qanotlari zaifligi tufayli qurshovga tushib qolish xavfi tug'ilgan. Shu sababli orqaga chekinish amalga oshirish holatlarida jang paytida orqaga o'girilib ham behato otishni amalga oshirganlar.

Mil.av. 329-327 y.larda Spitamen Aleksandr (Iskandar)ga qarshi partizan urushi taktikasini qo'llagan.

Mil.av. 3-a. Oxirida hunlar hukmdori Mode xoqon harbiy islohat o'tkazgan. U an'anaviy yengil otliq qo'shinni og'ir qurollangan otliq qo'shinga aylantiradi. Gerodot massagetlar qo'shinidagi otliq jangchilarning og'ir qurol-aslahalari bo'lganini qayd etgan. Massagetlar yurtidan Mo'g'iliston, Xitoy va Sibir (Oltoy)ga og'ir qurollangan suvoriyga mo'ljallangan baland bo'yli ajoyib jangovar otlar tarqalgan. Hunlarning harbiy tartibiga binoan har bir ming kishidan iborat bo'lgan qo'shinga mingboshi. 100 kishidan iborat qo'shinga yuzboshi, 10-jangchiga-o'nboshi boshchilik qilgan. Qo'shin, asosan otliq askarlardan iborat bo'lgan. Hunlar qo'shini 4 qismga bo'linib, xar bir qism jangchilari ma'lum rangdagi otlarni mingan suvoriylardan iborat bo'lgan. Qo'shinning g'arb tomonida saf tortgan suvoriylar oq ot, sharqiy qismida-bo'z ot, shim.da-qora ot va jan.da sariq (saman) ot minib safdo turganlar. Dushmanga o'zlarini chekinayotgan qilib ko'rsatib, ularni aldab, uzoq masofagacha orqalaridan ergashtirib borganlar. Dushman ularni ta'qib etib charchagan paytda hunlar raqiblariga qo'qqisdan hamla qilib ularni tor-mor etganlar[10]. Mabodo yengilib qolsalar, hunlar har tomonga

tarqalib ketganlar. O'rta Osiyoda Kushon podsholigi davrida saltanat sarhadlarida mustahkam qal'alar (jumladan, Xorazmdagi Ayoq qal'a, Tuproq qal'a va b.) qurilishi keng rivojlangan. Shaharlar burjli qalin devorlar bilan o'rab olingan. Qang davlati qo'shining asosini yengil otliqlar tashkil etgan, qo'shin safarda ekanligida razvedka maqsadida oldinga ilg'or qism jo'natilgan. Eftaliylar davrida jang qilishning asosiy usullaridan biri, kuchli raqib bilan yuzma-yuz jang qilmasdan uning 2 qanotiga beto'xtov zarbalar berish yo'li bilan uni holdan toydirish bo'lgan.

Turk xoqonligi davrida jang taqdirini og'ir qurollangan suvoriylarning yoyma holda gaplashib qilgan hujumi hal etgan. Biroq jang qilishning bunday sodda usullaridan boshqa, manyovr qilish - yonboshdan aylanib o'tish usuli ham bo'lgan (mas., To'nyuquq boshchiligidagi qo'shining qirg'izlarga qarshi nayza balandligidagi qor qoplagan tog'dan oshib to'satdan qilgan hujumi va Qora Irtishdan o'tib turgashlar uxlab yotganda qo'qqisdan hujum qilib ularning tor-mor qilinganligi) [9].

Turk sarkardalari raqibini g'aflatda qoldirish usulidan keng foydalanganlar.

Arablar istilosi davrida Sug'dga yordamga kelgan turkashlar kichik urush taktikasini qo'llaganlar. Ularning yengil otliq qo'shini arablarga qo'qqisdan hamla qilib ularga tinchlik bermagan. [10]

Turk xoqonligida qo'shin zarbdor qismlardan - kamon bilan qurollangan yengil otliqlar va og'ir qurollangan otliqlardan, shuningdek, ko'p sonli yordamchi qismlardan: piyodalar, ug'ruq, xizmatkorlar, ta'minot xizmatidan iborat edi.

Biror mamlakatga bostirib kirishda va ayniqsa jangga tayyorgarlik ko'rishda turkiylar ayg'oqchilik va razvedkaga katta e'tibor berganlar. Jang boshlanishidan oldin xoqon 2-3 sarkarda bilan birgalikda qo'shindan ajrab tevarak-atrofni tekshirib chiqqan, agarda himoyalangan yerni ko'rsa, o'sha yerdan hujum qilishni buyurgan.

Arablar Balanjar qal'asini qamal qilganida xazarlar 300 dan ortiq arava (a'jala) to'plab, ularni bir-biriga bog'lab qal'alarning atrofida mudofaa xalqasi sifatida qo'yib chiqib, bu bilan raqibning qal'aga kirishiga to'sqinlik qilganlar.

Turkiy xalqlarda 9-10 asrlarda harbiy sa'nat yanada yuqori bosqichga ko'tarilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida o'zining yuksak bosqichiga yetgan.

Amir Temur dushmaniga qo'qqisdan qaqshatgich zarba berish usuli bilan shuhrat qozongan edi. G'anim o'rdagohi aniqlangach, aksariyat hollarida Sohibqiron unga maxfiy yoki o'tish o'ta mashaqqatli bo'lgan, hech bir kimsaning oyog'i yetmagan dovonlar, daralar, so'qmoqlar, tog'u oshlar orqali tunda ulovlarni jilovidan tutgan tarzda yaqinlashar, quyosh o'zining zarrin nurlarini bepoyon zamin uzra socha boshlashi bilan g'aflat uyqusida yotgan yog'iga quyundek yopirilar edi[2,6,7].

Amir Temur armiyasi safar paytida quyidagi jangovar taritibda harakat qilgan. Bosh kuchlardan ancha ilgari qaravul-avanpost, undan keyin mang'lay (hiravul)-avangard, barang'ar, juvang'ar, qo'l, chag'davul-(forsiy dadabiyotlarda-soqa) ar'ergard yurgan. Qo'shin ortidan o'g'ruq peshma-pesh kelgan.

Qo'shinda suvli to'siqlarni kechib o'tishga alohida e'tibor qaratilgan. Daryolarning sayoz yerlari guzar-kechikka aylantirilgan va soqsi otliq guruhlar tomonidan ehtiyot qilingan. Daryo yoqasiga yetib kelgan qo'shin bo'luk-bo'luk, favj-favj, qism-qism bo'lib kechikdan o'ta boshlagan. Ko'klam va kuz faslining seryomg'ir kunlarida daryo suvining ko'payishi natijasida guzardan o'tish ancha mushkullashgan. Daryolar ustida qayiqlar yordamida bog'langan ko'prik orqali og'ir texnika hamda o'g'ruq o'tkazilgan. Suvoriylar ko'pincha tezoqar daryolardan otning yugani va yoliga osilgan tarzda, piyodalar esa meshlar ko'magida osonlik bilan talofatsiz kechib o'tgan[7].

Ilk harbiy-nazariy bilimlar Qadimgi Misr, Eron, Xitoy, Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan: Napoleon 1 Fransiya qurolli kuchlarini qayta qurib, urush olib borishning yangicha shakl va usullarini qo'rib chiqish va qo'llash bilan harbiy fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdi. 19-asrning 2 yarmida vujudga kelgan bosh shtablar harbiy ishlarni tashkil etish markazlariga aylandi.

Pyotr-1 strategiya va taktikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Qator yirik harbiy islohatlar qildi, harbiy ta'limning samarador usullarini ishlab chiqdi.

Taktikaning taraqqiyoti jangovar tartibning eng sodda shakllaridan qo'shinlarni yuzma-yuz to'qnashuvigacha, jang maydonida qo'shinlari murakkab manyovrlarni amalga oshirishlari bilan belgilangan[11].

Yunoniston asosiy harbiy kuchini og'ir qurollangan piyodalar (goplitlar) tashkil etgan, ular shamshir, nayza bilan qurollanib, temir sovutlar kiyishgan. Jangdan oldin qo'shinlar falanga bo'lib saf tortganlar. Markazda og'ir qurollangan piyodalar to'g'ri to'rtburchak shaklida jips bo'lib saf tortgan, qanotlarda otliqlar, oldingi qatorda bo'lsa yoyma saf bo'lib yengil piyodalar joylashgan.

Rim imperiyasi qo'shinining (mil.av.4-2-a.lar) tashkiliy shakli legion edi, u manipulalarga bo'lingan (har bir manipulada 10 qator, har qatorda 12 tadan jangchi), 3 manipula kogortani tashkil qilgan. Kogorta bir keyinchalik 3 qator bo'lib saf tortgan. Legion qanotlarida yengil qurollangan piyoda askarlar va otliq qo'shin turgan[9].

Karfagen davlatining sarkardasi Gannibal mil.av. 216 y.dagi Kanna jangida bir paytning o'zida har 2 qanotdan zarba berish usulini qo'llab oz sonli kuchlar bilan rimliklarning yirik qo'shinini to'liq qurshovga olib tor-mor keltirishga erishgan.

Mil. av 1-a.da Rim sarkardasi Yuliy sezar shtab tuzgan, jang maydonida qo'shinlar manyovrini mohirona amalga oshirgan, raqib qo'shini qanoti va old tomoniga qarshi hal qiluv zarba berish uchun kogortaning 3-qatoridan foydalangan, bu bilan zaxira barpo etilishini boshlab bergan.

Qad.misrliklar, ossuriyaliklar, xitoylar mustahkam istehkomlar, yo'llar va ko'priklar qurishga mohir bo'lishgan. Qadimgi Dunyoning ayrim mamlakatlari olib borgan urushlarda dengiz floti muhim rol uynagan.

2. O'rta asrlar davrida harbiy san'at.

O'rta asr davlatlari qo'shinining asosiy kuchini xalq lashkarlari, uning negizini esa zodagon drujinasi tashkil etgan. 8-9 asrlarda G'arbiy Yevropada (Frank davlati) asosiy harbiy kuch og'ir qurollangan otliq qo'shin (ritsarlar)dan iborat edi: piyodalar qo'shinining yordamchi turiga aylangan. Harbiy harakatlar nisbatan oz sonli qo'shin bilan aniq rejasiz va ma'lum bir jangovar safga tizilmay olib borilgan.

Mo'g'ullar qo'shini (13-14-a.lar) yengil va og'ir qurollangan otliq askarlardan iborat bo'lib, uzoq masofaga harbiy yurish qilib, jang maydonida ko'pchilik bo'lib harakat qilgan. Qo'shin ilg'or qism, so'l va o'ng qanot va zaxiradan tashkil topgan[5].

16-asrning 2-yarmida mutlaq monarxiya davlatlari muntazam yollanma armiyalar tuza boshlashgan. Armiyalarni o'tsochar qurollarga, jumladan artilleriyaga ega bo'lishi tufayli jang olib borishning yangi usuli-chiziqli taktikani paydo bo'lishiga olib keldi.

18-asr oxiri 19-asr boshlarida G'arbiy Yevropaning aksariyat mamlakatlarida doimiy qo'shin birlashmalarda-murakkab jangovar vazifalarni mustaqil hal eta oladigan diviziyalar va korpuslar barpo etilgan.

18-asr oxiri-19-asr boshidagi fransuz sarkardasi Napaleon 1 va rus sarkardasi M.I.Kutuzovlarning xizmati katta bo'lgan. Masalan: Napaleon 1 artilleriya va otliq qo'shinni yalpisiga qo'llashni joriy etgan va jang taqdirini hal etishda zaxiralardan mohirona foydalangan[5].

Jangovar harakatlarning yangi-shakli operatsiya shakllana boshlagan. Operatsiya- qo'mondonlikning yagona maqsadi yo'lida birlashgan bir yoxud bir necha armiyalar tomonidan olib borilgan janglar majmui. Birinchi jahon urushi davrida harbiy operatsiya tushunchasi amaliy va nazariy jihatdan shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar.

- 1.Karimov I Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.Muloqat 1998 5-son
- 2.Avesto San'at. 2001.
- 3.Asqarov A Sopollitepa. T Fan 1973 y
- 4.Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Perevodi i Primechaniya G.A.Stratanovskogo M. 1999 g.
- 5.O'zbekiston respublikasi Ensikloediya T.1997 y.
- 6.Jamiyat va boshqaruv jurnali T-2002

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar.

- 1.Karimov I. Amir Temur-faxrimiz, g'ururimiz asarlar. 5-jild. T. 1997 y.
- 2.Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni. Konferensiya materiali T-1996.

3. Bobur. Boburnoma. T-1998.
4. Ivanin M.I. Sostoyaniya voennogo iskusstvo u sredneaziatskix narodov. Pri Temerlang Epoxa lichnost deyaniya. M-1992
5. Ivanin M.I. Ovoennom iskusstvo i zavoevaniya mongo-tatar i sredneaziatskix narodov pri Chingizxane i Temurlane. SPB 1875.
6. Temur tuzluklari. 2006 y
7. Dadaboev X Amir Temurning harbiy mahorati. T-1996 y.
8. Voennogo delo drevnogo i srednevekovogo naseleniya severnoy i sentralnoy Azii. (Sb nauch trudov) Novosibirsk 1990 g.
9. Razin Ye.A. Istoriya voennogo iskusstva. T-1-3. Moskva 1955-1961 gg.
10. O'zbekiston tarixi jur. 2-son 2002 y.
11. Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Perevodi i Primechaniya G.A. Stratanovskogo M. 1999 g.